

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Xojimatov	
Globalashuv sharoitida musiqiy qadriyatlarining estetik ta'sirchanligining o'zgarib borishi va qadrsizlanishi jarayoni.....	442
B.S.Sobirov	
Aktorlik faoliyatini shakllantirishda aktyorlik san'ati xususiyatlari	448
D.A.Yuldasheva	
Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat va san'at sohasi rivojining takomillashuvi	451
I.I.Qirg'izov	
Nomoddiy madaniy meros tarkibiga kirgan shashmaqom janriga aksiologik munosabatning yuksalishi	455
I.T.Yuldashev	
Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va ahamiyati	459
L.E.Tursunova	
Yangi O'zbekistonda yoshlar estetik madaniyatini milliy musiqa tarbiyasi asosida rivojlantirish vazifalari	462
M.Achildiyeva	
O'zbek musiqa san'ati rivojining tarixiy takomil bosqichlari va yo'llari	468
N.X.Djalalova	
Musiqiy madaniyat-yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda muhim omillardan biri sifatida	473
N.R.Mansurova	
Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik asoslari	478
O.R.Soliyev	
Barokko davrida san'atning o'ziga xosligi	488
R.A.Orziboyev	
Milliy musiqamizga doir Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlari tahlili	491
R.J.Soxibov	
Naqqoshlikda kompozitsiya va uning qo'llanilishi	495
A.B.Sulaymanova	
The importance of modern innovative pedagogical technologies in teaching engineering graphics	500
U.T.Isakov	
O'zbek xalqi musiqa madaniyatining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro aloqadorligi	503
Z.A.Boboyeva	
Yoshlarning badiiy tasavvuri va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviriy san'atning o'rni	508
J.Sh.Muydinov	
O'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda musiqa mashg'ulotlarining ahamiyati	511
N.M.Madaminov	
Oliy ta'lim tizimida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishning ahamiyati	515
M.T.Yunusaliyev	
Akvarel texnikasida noan'anaviy yondashuv	518
D.Q.Oxunova, S.Sh.Hakimova	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiya va metodlari	524
D.K.Rafikova	
O'quvchilarni kasbga yo'naltrishning pedagogik zaruriyati.....	528
S.H.Mamajonov	
Amir Temur mohir strategik.....	533
D.M.Xolikova	
Talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	536
O.S.Usmonova	
1-sinf o'quvchilarini mnemotexnika yordamida chiroyli yozishga o'rgatish	544



UO'K: 725.947.6

JAMIYAT MA'NAVIY YANGILANISHI JARAYONIDA MINIATYURA SAN'ATINIG O'RNI VA AHAMIYATI**РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИСКУССТВА МИНИАТЮРЫ В ПРОЦЕССЕ ДУХОВНОГО ОБНОВЛЕНИЯ ОБЩЕСТВА****THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF MINIATURE ART IN THE PROCESS OF SPIRITUAL RENEWAL OF SOCIETY**

Yuldashev Ibrohim To'ychiyevich 
Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada real hayot haqiqatini badiiy chizgilarda nafis chiziqilar bilan aks ettirish muhim badiiy tamoyil sanaladi. Biroq bunga amal qilish uchun har qanday ijodkor avvalom bor shu tanlab olgan mavzusi yuzasidan juda juqur mushoxada qila olishi kerak, shundagina qisman nasib etishi amri mahol. Haqiqatni o'z asarida badiiy kompozitsion yechimlar orqali qaror toptirish, muallifdan katta kuch, mehnat, bilim, ishonch hamda mard kishilarga xos jasorat va yuksak e'tiqod ta'lab etiladi. Badiiy asar mutolaasi muallif o'rtasida ruxiy bog'liqlik jarayonining vujudga kelishini ta'minlaydi. Bundan tashqari jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va ahamiyati masalasida so'z boradi.

Аннотация

В статье важным художественным принципом считается отражение действительности реальной жизни в художественных линиях с изящными линиями. Однако, чтобы следовать этому, любой творец должен прежде всего уметь сделать очень глубокое наблюдение по выбранной теме, тогда невозможно быть пристрастным. Поиск истины в своем произведении через художественно-композиционные решения требует от автора больших усилий, труда, знаний, уверенности, смелости и высокой веры, свойственных смелым людям. Чтение художественного произведения обеспечивает создание процесса духовной связи между автором и читателем. Кроме того, обсуждается роль и значение искусства миниатюры в процессе духовного обновления общества.

Abstract

In the article, an important artistic principle is to reflect the reality of real life in artistic lines with graceful lines. However, to follow this, any creator must first of all be able to make a very deep observation on the chosen topic, then it is impossible to be biased. The search for truth in one's work through artistic and compositional solutions requires from the author great effort, labor, knowledge, confidence, courage and high faith, characteristic of brave people. Reading a work of fiction ensures the creation of a process of spiritual connection between the author and the reader. In addition, the role and significance of miniature art in the process of spiritual renewal of society is discussed.

Kalit so'zlar: Plener, Abstraksionizm, uslub, san'at, rangtasvir, rang Muzahhib, stend, istiqbol, eskiz, ramka, janr, siluet, galereya, the, kompozitsiya, kompozitsiya, uslub, girix, islomiy, qahramon, muzey, miniatyura, axta.

Ключевые слова: Пленэр, Абстракционизм, стиль, искусство, живопись, цвет Музахиб, стод, перспектива, этюд, падрамник, жанр, силуэт, галерея, т он, композиция, композиция, стиль, гирих, исламский, герой, музей, миниатюра, ахта.

Key words: Plein air, Abstractionism, style, art, painting, color Muzakhib, stod, perspective, sketch, frame, genre, silhouette, gallery, the, composition, composition, style, gyrih, Islamic, hero, museum, miniature, akhta.

KIRISH

O'z vaqtida Tasviriy san'atning mo'jaz bir turi "miniatyura" san'ati o'zining betakrorligi bilan dunyoga mashhur bo'lib, dastlabki ko'rinishlaridan to bugungi kunlargacha kishilarning ma'naviy olamini boyitishga, badiiy-estetik didining shakllanishiga, ruhiyatini tarbiyalanishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Shu masalada tasviriy san'at turlari bir-biridan nega bunchalik farq qilishi bundan tashqari ayrim san'at turlari ayrimlari esa vaqtlar o'tishi bilan ta'sir ko'rsatishi haqida o'ylashga majbur qiladi[36].

"Barcha san'at turlari kabi miniatyura san'ati ham har qanday vaziyatda insonning, millatning, xalqning ma'naviy olamini boyitish ni inobarin muminsoniy ezgulikka da'vat etishni oliy

maqsad qilib qo'yadi O'zining ertakona fantastik romantik va estetik xususiyatlari orqali insonlar oldida go'zallik olamini ochib beradi ularning estetik didlarini rivojlantiradi bilim olish va falsafiy mulohaza yuritishga undaydi hamda atrof muhitdagi borliqqa nisbatan fikirlashda o'ta extiyotkorlik bilan yondoshishga o'rgatadi." Ma'naviy qadriyatlar tizimida miniatyura san'atining o'rni va ahamiyati. deganda nafaqat estetik dunyoqarash balki balki umuminsoniy ma'naviy atrofimizni o'zaro munosabatimizni bog'lab turgan barcha munosabatlarni yaxlit ko'ra olish bilan birga tarix va bugungi kunni o'tmish bilan bog'lovchi nozik munosabatlarni solishtira olish zaruriyati o'rganiladi.

"Insoniyat madaniyat tarixida san'at va fan kabi bir-biriga yaqin ma'naviy hodisa kam uchraydi. Ularning har ikkisi ham bir vazifani bajaradi, voqelikni in'ikos ettiradi. Faqat san'at buni muayyan fan-mavhum tarzda amalga oshiradi. Ya'ni san'at voqelikdagi umumiylikni xususiylashtirish, fan esa xususiylilikni umumlashtirish mavhumlashtirish orqali ish ko'radi. Shu sababli san'atda badiiy qiyofalar, fanda tushunchalar muhim o'rin egallaydi [21].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

"Hozirgi davrda taraqqiyotimiz uchun yod bo'lgan, yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir etuvchi, yoshlarni milliy qadriyat va sa'atdan uzoqlashtirmay vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydigan asosiy omillardan miniatyura, tasviriy san'at, badiiy adabiyot, musiqa va boshqa san'at turlari orqali g'oyaviy ongli, ma'naviy barkamol bo'lishlarini ta'minlash, qadriyat va ma'naviyatni bobolarimizdan qolgan an'analar asosida mustaxkamlash hamda badiiy estetik munosabatlarini kengaytiradi asosiy maqsadimiz xisoblanadi".

Milliy qadriyatlar yoshlarni o'z-o'zini anglashi, milliy g'ururga ega bo'lishi, o'z millati va uning tarixi bilan faxrlanuvchi, yuksak ideallarga intiluvchi va mehnatsevar, imonli va insofli, o'tmish ajdodlar va keksalarga nisbatan izzat-hurmatli hamda yurt taqdirini o'z taqdiri bilan bir deb hisoblovchi shaxs bo'lib yetishishi uchun xizmat qiladi.

Yoshlar faolligini ta'minlashning yana bir muhim yo'nalishi ular ongida milliy urf-odat va an'analarni shakllantirishdir. Milliy urf-odatlar hayotimizning har bir sohasiga singib ketgan bo'lib, Bu bizni aynan qaysi xalq vakili ekanligimizni ko'rsatuvchi belgi, ya'ni, bizning kim ekanligimizni o'tmishimiz haqidagi isbotlovchi dalil hisoblanadi. Chunki, ma'naviy barkamol yoshlarni o'ziga xos bo'lgan milliy urf- odatlar xayr-saxovat, mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-omus, donishmandlik, ulug'vorlik, oilaparvarlik, sabrlilik kabi ma'naviy fazilatlar, mehmondo'stlik, bag'rikenglik, vatanparvarlik, oqko'ngillilik, mehnatkashlik kabi milliy qadriyatlar aynan urf-odat an'analarda qaror topadi.[123]

Shunday ekan, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash millatning o'ziga hurmat bilan qarashning asosiy belgisidir. Ming yillar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlarimiz hozirgi davrda yaratilgan madaniy-ma'naviy boyliklar bilan qo'shilib, taraqqiyotimizni tezlatadi, g'oyaviy va ma'naviy poklanishni ta'minlashga ko'maklashadi. Qadriyatlarining barcha turlari insonning ayniqsa, yoshlarning farovon hayot kechirishi, erkin yashashi, ma'naviy-axloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladigan vositalar bo'lib hisoblanadi".

NATIJA VA MUHOKAMA

San'at bilan fanning yana bir o'xshashlik tomoni bor, bu ularning ro'y beradigan voqelikni avvaldan ko'ra bilish, karomat qilish xususiyatida ko'rinadi. Uni fanda ilmiy taxmin, faraz, san'atda xayolot, tasavvur deb ataydilar. Masalan: "Beruniy globus yasar ekan, o'z ilmiy nazariy hisob-kitoblariga tayanib, dunyoda yana bir qit'a mavjud bo'lishi kerak degan farazni ilgari suradi va u kit'ani xaritada qayd etadi. Bir necha asrdan so'ng Amerika kit'asi kashf etiladi va Beruniyning taxmini amaliyotda tasdiklangan ilmiy xulosa tusini oladi. San'atda ham shunday: Shark adabiyotidagi boshqa yerda bo'layotgan voqealarni ko'rsatuvchi mo'jizaviylik bilan bog'lik uzuk, jom, ko'zgular, ilmiy xayolot janridagi asarlarda fazo kemalarida uchish, o'zga sayyoralarga qo'nish singari juda ko'p hodisalar hozir reallikka aylangan.[101-110] Faqat bunday hodisalar san'atda fandagiga nisbatan keng, miqyosli va katta hajmlarda namoyon bo'ladi. Bu san'atkor shaxsining alohidaligi, onglanmagan ruhiy holatining transsendental aloqadorlikka ega ekanligi, ilhom va uning ilohiyligi kabi xususiyatlari bilan bog'liq. Xullas, san'at, ma'lum ma'noda fanni boshqarib boradi, unga yangi ilmiy goyalar tizimini, muammolarni hatto muammolarni hal etish yo'llarini taklif qiladi. U fanga o'xshab "shunday qilishing kerak", demaydi, "shunday qilish mumkin emasmi" degan taklifni o'rta taqda tashlaydi va "demokratik asosda" fanni ilgari yetaklaydi. Shuningdek, fanning san'atga ta'siri borligini ham ta'kidlash joiz. U olimlar hayoti va faoliyatini, yangi ilmiy muammolarni badiiy asarlarda in'ikos topishida, fan taraqqiyotining san'at turlari ravnaqiga, yangi san'at turlarining

PEDAGOGIKA

vujudga kelishiga ko'rsatgan ta'sirida ko'zga tashlanadi. [44-47] Ayni paytda san'atni o'rganadigan, uni ilmiy tadqiq etadigan o'zining maxsus fanlari bor.

San'at ham, fan ham mantiq bilan ish kuradi. Lekin san'atning mantiqi o'ziga xos oddiy mantiqdan farqlanadi. Chunki fan tushuncha sifatida so'zlarni faqat asl ma'nosida, ya'ni, bir ma'noda qo'llaydi, san'at esa ularni ko'p ma'noli tarzda, ko'chma ma'nolarda ishlatadi. San'atda esa suv obi hayot, bolday shirin, moviy, tiniq, loyqa, qora, o'tayotgan umr, tuproqning joni kabi yuzlab sifat, xususiyat va ma'nolarga ega so'z. Ko'rinib turibdiki, fan san'at darajasidagi erkinlikka ega emas. Bir marta uzil-kesil hal qilingan muammoga yoki birov kashf etgan qonunga ikkinchisi bir olim qaytmaydi. Masalan: Faradey qonunlarini boshqa hech kim qaytadan kashf etmaydi. San'atda bir mavzu, bir muammo har xil yo'l bilan ochib beriladi va, eng qizig'i shundaki, har bir badiiy talqin boshkasini takrorlamaydi. "Vatan" deb nomlangan yuzlab she'rlar bor, yoki Navoiy qiyofasini tasvirlagan rangtasvir asarlari ham shunaka. Lekin ularning birortasi ikkinchisini aynan bizga qayta taqdim etmaydi, hammasi yangi va o'ziga xosdir [38-39].

XULOSA

Shunday qilib, san'at va fan barcha o'zaro o'xshashliklari hamda tafovutlardan qat'i nazar, bir-birini to'ldirib boruvchi ma'naviy hodisalar sifatida muntazam, dialektik aloqada faolit olib boradi, inson ma'naviyat olamini yanada boyishiga rang-baranglashishiga hizmat qiladi.

Ular orasida yana bir farq taraqqiyot masalasi bilan bog'lik. Fan tadrijiy taraqqiy topib, jamiyat intellektuallashtirgan, iqtisodiyot rivojlangan sari ravnaqqa qarab boradi. San'at esa bu omillar bilan ish ko'rmaydi, uning o'z ichki taraqqiyot konunlari bor. Ular jamiyatning ma'naviy olami bilan, qadriyatlar qanday anglanganligi va qadrlanganligi, tarixiy davrlar aro ro'y beradigan rux yangilanishi, daholarning dunyoga kelishi kabi sabablar bilan bog'liq.[41-42]

Yuqoridagi fikrlarni mustahkamlash maqsadida O'rta Osiyo miniatyura maktabi ya'ni Samarqand va Hirot nafis tasviriy san'at maktabi misolida ko'rib chiqamiz. Samarqand va Hirot miniatyura maktablari an'analari hozirgi kun estetik qarashlarga o'zining tasvir usuli, kompozitsion yechimi va qator uslubiy jihatlari bilan Behzod maktabi misol bo'la oladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tasviriy san'at asoslari. R.Hasanov. Toshkent: G' G'ulom nashriyoti, 2009 yil, 21-b.
2. A.Madaminov, N.Normatov. Sharq miniatyura maktablari. Maqolalar to'plami. Toshkent G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989 yil, 36-b.
3. A.Madramimov. Temuriylar va Boburiylar davri miniatyura san'ati rivoji. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Temuriylar tarixi davlati muzeyi. Toshkent. 2019 yil. 101-110-b.
4. Zamonaviy O'zbekiston miniatyurasi. Shohalil Shoyoqubov. Toshkent "O'zbekiston" 2006 yil. 123-b.
5. A.A.Madramimov. Alisher Navoiy badiiy asarlarining 15-16 asrlardagi qo'lyozmalari. Temuriylar tarixi davlat muzeyi. Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi. Toshkent, 2021 yil.
6. Elmira Ismoilova. Sharq Miniatyura maktablari. Toshkent: G' G'ulom nashriyoti, 1989 yil. 44-47-b.
7. A.A.Madramimov. Alisher Navoiy badiiy asarlarining 15-16 asrlardagi qo'lyozmalari. Temuriylar tarixi davlat muzeyi. Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi. Toshkent, 2021 yil. 38-39-betlar.